

PEDAGOGIK TA'LIMDA INNOVATSION KLASTERLAR KONSEPSIYASI: TIZIMLI YONDASHUV VA BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI

Komilova Xurshida Toxirovna,

Andijon davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası p.f.b.f.d., professor

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada pedagogik ta'lim tizimida innovatsion klasterlar konsepsiyasining mazmun-mohiyati, uning tizimli yondashuv asosida tashkil etilishi hamda barqaror rivojlanish omillari tahlil qilinadi. Ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashda klaster modelining o'rni, uning samaradorligi va amaliy ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, innovatsion klasterlar orqali pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirish hamda ta'lim tizimining uzluksiz rivojlanishini ta'minlash masalalari yoritiladi. Tizimli yondashuv asosida klaster ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalar, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv mexanizmlarining takomillashtirilishi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik ta'lim, innovatsion klaster, tizimli yondashuv, barqaror rivojlanish, ta'lim integratsiyasi, ilm-fan va ishlab chiqarish aloqasi, kadrlar tayyorlash, ta'lim sifati, innovatsiyalar, boshqaruv mexanizmlari.

Аннотация. В данной научной статье анализируется сущность концепции инновационных кластеров в системе педагогического образования, её организация на основе системного подхода и факторы устойчивого развития. Раскрываются роль кластерной модели в обеспечении интеграции образования, науки и производства, её эффективность и практическое значение. Также освещаются вопросы повышения качества подготовки педагогических кадров посредством инновационных кластеров, формирования конкурентоспособных специалистов и обеспечения непрерывного развития системы образования. Взаимодействие между участниками кластера на основе системного подхода, эффективное использование ресурсов и совершенствование механизмов управления рассматриваются в качестве важных факторов.

Ключевые слова: педагогическое образование, инновационный кластер, системный подход, устойчивое развитие, интеграция образования, связь науки и производства, подготовка кадров, качество образования, инновации, механизмы управления.

Abstract. This scientific article analyzes the essence of the innovative cluster concept within the pedagogical education system, its organization based on a systematic approach, and the factors contributing to its sustainable development. It reveals the role, effectiveness, and practical significance of the cluster model in ensuring the integration of education, science, and industry. Furthermore, the article covers issues such as enhancing the quality of pedagogical training, developing competitive specialists, and ensuring the continuous development of the education system through innovative clusters. Based on a systematic approach, the interaction between cluster participants, the efficient use of resources, and the improvement of management mechanisms are considered crucial factors.

Keywords: pedagogical education, innovative cluster, systematic approach, sustainable development, educational integration, science and industry relations, personnel training, quality of education, innovations, management mechanisms.

Kirish. Oliy ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta'lim, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi tarqoqlik bugungi kunda uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda. Fan va ta'limning ishlab chiqarish bilan uyg'unligi barcha sohalardagi

taraqqiyotni taʼminlaydi. Bu borada tabiiyki, fan, taʼlim va ishlab chiqarishning integratsiyasi muhim va dolzarb vazifa. Bu esa oʻz-oʻzidan innovatsion klasterga yoʻl ochadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017-yil 10-11-mart va 2018-yil 16-17-fevral kunlari xalq bilan muloqot qilish hamda joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishib, Buxoro viloyatiga tashrifi chogʻidagi “Paxta va toʻqimachilik klasteri” loyihasini tashkil etish gʻoyasini olgʻa surdi. Unda Oʻzbekistonda klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari koʻrsatib berilgan. Darhaqiqat, soʻnggi vaqtda innovatsion klaster tizimi barcha sohalarga shiddat bilan kirib bormoqda. Jumladan, taʼlim tizimida ham klaster mavjud. Bu esa shaxsni kamol topishi va yetuk kadr boʻlishiga qaratilgan boʻlib, uning bogʻliqligi - maktabgacha, umumiy oʻrta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy oʻquv yurti, doktorantura, malaka oshirish kabi jarayonlarni qamrab oluvchi butun umr davomidagi taʼlim zanjirini bir-biriga bogʻlanganidir.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotlar tahlili koʻrsatadiki, pedagogik taʼlim tizimida innovatsion klasterlarni joriy etish va ularni samarali boshqarish masalalari turli tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Tadqiqotlarda taʼlim jarayonining samaradorligini oshirishda sistemali yondashuv va resurslarni birlashtirishning ahamiyati alohida taʼkidlanadi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda klasterlar orqali oʻquv jarayonini takomillashtirish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarni shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar mavjudligi koʻrsatilgan. Empirik tadqiqotlar taʼlim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonida mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni klaster modeli yordamida hal etish imkoniyatlarini yoritadi. Shu bilan birga, pedagogik faoliyatda klaster ishtirokchilari oʻrtasidagi samarali hamkorlik, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va intellektual resurslardan oqilona foydalanish taʼlim sifatini oshirishda muhim omil sifatida qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida sistemali yondashuv va klasterlash modeli asosida pedagogik taʼlim jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida maʼlumotlar empirik kuzatuv, ekspert baholari va ilmiy-analitik adabiyotlar asosida yigʻilib, taʼlim tizimida innovatsion klasterlarning samaradorligi baholangan.

Tahlillar va natijalar. Taʼlim klasterlari maktablar, universitetlar, davlat idoralari, notijorat tashkilotlar va biznes kabi bir nechta manfaatdor tomonlarni birlashtirgan holda, umumiy muammolarni hal etish va hamkorlik qilishga, shuningdek, innovatsiya va bilim almashishni ragʻbatlantirishga qaratilgan. Bu esa taʼlim tizimini takomillashtirishning samarali usuli hisoblanadi. Taʼlim klasterlarining asosiy afzalliklaridan biri resurslar va tajribalarni birlashtirishidir. Birgalikda ishlash orqali muassasalar, shu bilan birga, boshqa tashkilotlar ham takomillashtirilgan oʻquv dasturlari, oʻqitish metodikasi hamda oʻquv materiallarini ishlab chiqishda oʻzlarining jamoaviy kuch va imkoniyatlaridan

foydalanishlari mumkin. Bu talabalar uchun yanada samarali va qiziqarli ta'lim jarayonini vujudga keltiradi.

Ta'lim klasterlari ta'limning turli darajalari o'rtasidagi hamkorlikni ham qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, universitetlar mentorlik dasturlari, maxsus resurslardan foydalanish va amaliy o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish uchun boshlang'ich va o'rta maktablar bilan hamkorlik qilishi mumkin. Bu talabalarni kelgusi faoliyatlariga mos ravishda yetishtirish imkonini beradi. Yurtboshimiz hozirgi kunda milliy iqtisodiyotimizni "Klaster usuli"da rivojlantirish bo'yicha qo'ygan maqsad va rejasiga asoslangan holda OTM va boshqa o'quv yurtlarida "Raqobatbardosh kadr tayyorlash klasteri"larini tashkil etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatimiz rivojlanishining chuqur ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berayotgan hozirgi bosqichida talabalarga ta'lim-tarbiya berish sifatini oshirish yo'llari va vositalarini izlab topish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, ta'lim, ilm-fan har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar bevosita uning demokratik, bozor munosabatlariga o'tish jarayoni bilan birgalikda amalga oshirilmoqda. Bugungi kun yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, davr ruhida tarbiyalash, ta'lim sohasini isloh qilish, tizimni tubdan takomillashtirish, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etish g'oyasi kun tartibidagi dolzarb va ustivor vazifalaridan biri sifatida davlatimiz rahbari tomonidan ta'kidlanib kelinmoqda. Shuning uchun ham Respublikamizda oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida aholining oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan ma'nauy va jismonan barkamol yosh kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustivor yo'nalishlaridan biri deb belgilab qo'yilgan. Ta'lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirish bosqichida, yetakchi pedagoglardan pedagogik texnologiyaning qonun-qoida va tamoyillari asosida uslubiy ashyolarni ishlab chiqish paytlarida yuqoriroq malaka talab etiladi. Ta'limni boshqarishda tizimli yondashuv-bu boshqaruvchi, ya'ni o'qituvchining mavjud imkoniyatlari asosida tahsil oluvchilarga kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni qo'yilgan maqsadga mos holda shakllantirish jarayonidir. Ta'limda boshqarish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishga turli texnologiyalar joriy etilmoqda. Ta'limning harakatchan modelini tuzish orqali boshqarish o'zining samaradorligini ko'rsatmoqda. **Mo'ljallangan texnologiya tizimli yondashuvga asoslangan bo'lib, quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:**

- o'rganilayotgan fan bo'yicha ma'lumotlarni tayyorlash;

- tayyorlangan ma'lumotlarni o'qitish uslubi va maqsadini e'tiborga olgan holda ma'lum ketmaketlikka keltirish;
- o'quv materialini mazmuni qo'llamoqchi bo'lgan pedagogik usullar nuqtai nazaridan tahlil qilish;
- pedagogik texnologiyalar qo'llanilishining tegishli bosqichiga oid maqsadni aniqlash; pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayoni ketma-ketligini ishlab chiqish;
- texnologiyalardan foydalanishga oid uslubiy tavsiyalar tayyorlash;
- texnologiyalarni qo'llash va erishilgan natijalarni bilim, ko'nikma va malaka tizimlariga ajratish; olingan natijalar bo'yicha sifat ko'rsatkichlarini aniqlash; ko'zlangan maqsadga erishilganlik darajasini baholash;
- ta'limni boshqarish jarayoni to'g'risida tegishli xulosalar chiqarish bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida muhim omil hisoblanadi.

Uzluksiz ta'limda klaster hamkorlik munosabatlarini modellashtirish metodikasini takomillashtirish O'zbekiston ta'lim tizimi uchun dolzarb ahamiyatga ega. Bu yondashuv ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek, o'quvchilar o'rtasida samarali hamkorlik muhitini shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda tashkilot alohida komponentlar va butun klasterning konvertatsiya qilinishini ta'minlaydi. Klaster faoliyati yangi sifatli mahsulot yaratish imkonini beradi. Ta'limga nisbatan o'ziga xos yangi yondashuv bo'lgan klaster nafaqat hayot davomida ta'lim olish uchun shart-sharoitlarni ta'minlabgina qolmay, balki ta'limning uzluksizligini ta'minlaydigan tarkibiy qismlar o'rtasidagi mavjud va istiqbolli aloqalarni qayta tiklashga imkon beradi. Klaster mavjud intellektual resurslarni pedagogik ta'limni rivojlantirishning dolzarb muammolari atrofida integratsiyalash, pedagogik sohada oqilona vorisiylik tamoyilini yo'lga qo'yish, manfaatdor shaxslarning qoniqish darajasi haqida tezkor fikr-mulohazalar bilan bo'lajak o'qituvchilarni amaliy yo'naltirilgan holda tayyorlash bilan bog'liq muhim masalalar atrofida faoliyat olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmatov Farkhat Abdualimovich. Khudoiberganov Javlonbek Saotboy o'glu. IMPROVING THE QUALITIES OF PHYSICAL ENDURANCE IN STUDENT YOUTH. Journal of Natural Remedies Vol. 21, No. 12(2), (2021).
2. Kutlimurotovich, U. A. (2020). GENERAL PHYSIOLOGICAL PRINCIPLES OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(9), 2366-2371.
3. Бабажанова, В. А., Утепбергенов, А. К., Баймуратова, Г. А., & Ережепова, Г. Д. (2017). Исследование крепости телосложения (индекс Пинье) у юношей, проживающих в различных районах Приаралья. In Инновационные технологии в образовании и науке (pp. 11-14).
4. Утепбергенов, А. К., Утениязова, Д. К., & Есенбекова, Э. Ж. (2017). Исследование экологических факторов в изменении антропометрических показателей у юношей в Республике Каракалпакстан. In Инновационные технологии в образовании и науке (pp. 16-18).
5. Kutlimurotovich, U. A. (2021). The Concept of The Management of Body Functions and Their Properties. Organism and environment.
6. Утепбергенов, А., & Кутлымуратов, М. (2016). ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ НЕКОТОРЫХ КАРАКАЛПАКСКИХ НАРОДНЫХ ИГР. Апробация, (3), 88-90.